

VOL.3 MAR.
2025




The Lingua Spectrum

Cogito, ergo sum

ISSN: 3060-4958

"A special kind of beauty
exists which is born in
language, of language,
and for language."

**GASTON
BACHELARD**



MORE INFO:



www.lingvospektr.uz



t.me/thelinguaspectrum

The Lingua Spectrum Journal
Vol.3
(2025 yil mart)

TOSHKENT-2025

Ma'sul muharrir:

Raxmonov Azizxon Bositxonovich

– p.f.d., dotsent O'zDJTU Rus filologiyasi fakulteti
dekani

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Satibaldiyev Erkinjon Kamilovich

– O'zDJTU Ingliz tilini o'qitish metodikasi №3
kafedrasi katta o'qituvchisi



LINGUISTICS

— THE LINGUA SPECTRUM —

LINGVISTIKA

— LINGVOSPEKTR —

ЛИНГВИСТИКА

— ЛИНГВОСПЕКТР —

Fransuz tilida frazeologik birliklar va ularning lingvistik xususiyatlari

Xolova Shahnoza Davronovna
Shaxnozaxolova25@gmail.com

Buxoror davlat universiteti
Fransuz filologiyasi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Tilning ifodalilik darajasi uning lug'at boyligi, ayniqsa, frazeologik birliklar bilan chambarchas bog'liq. Frazeologizmlar xalqning madaniyati, urf-odatlar va dunyoqarashini aks ettirib, har bir tilda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, chet tilini o'rganish jarayonida frazeologik birliklarning o'rni katta bo'lib, ularni samarali o'qitish chet tilida erkin muloqot qilish ko'nikmasini shakllantirish uchun zarurdir. Fransuz tilida frazeologik birliklar – bu ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topgan, mustahkam ma'no ifodalovchi so'z birikmalaridir. Ular frazeologik birikmalar yoki iboralar sifatida tilning boyligini va o'ziga xosligini tashkil etadi. Ushbu maqolada fransuz tilida frazeologik birliklarning semantik-struktural turlari, lingvistik xususiyatlari va ularni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida duch kelinadigan turli vaziyatlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar : frazeologik birlik, nutq, madaniyat, lingvistik xususiyat, fikr, ma'no, tarjima.

Phraseological units and their linguistic characteristics in French language

Kholova Shahnoza Davronovna
Shaxnozaxolova25@gmail.com

Teacher of the department of French philology
Bukhara State University

Annotation. The expressiveness of a language is closely related to its vocabulary, especially phraseological units. Phraseological units play an important role in every language, reflecting the culture, traditions and worldview of the people. Phraseological units play a particularly important role in the process of learning a foreign language, and their effective learning is essential for developing the ability to communicate freely in a foreign language. In French, phraseological units are word combinations consisting of two or more words that express a strong meaning. They constitute the richness and uniqueness of the language as phraseological units or expressions. The article discusses the semantic and structural types of phraseological units of the French language, their linguistic features, as well as various situations that arise when translating them into Uzbek.

Keywords: phraseological unit, speech, culture, linguistic feature, thought, meaning, translation.

Фразеологические единицы и их лингвистическая характеристика на французском языке

Холова Шахноза Давроновна
Shaxnozaxolova25@gmail.com

Преподаватель кафедры французской филологии,
Бухарский государственный университет

Аннотация. Выразительность языка тесно связана с его словарным составом, особенно фразеологизмами. Фразеологизмы играют важную роль в каждом языке, отражая культуру, традиции и мировоззрение народа. Фразеологические единицы играют особенно важную роль в процессе изучения иностранного языка, и их эффективное обучение имеет важное значение для развития способности свободно общаться на иностранном языке. Во

французском языке фразеологизмы – это словосочетания, состоящие из двух или более слов, которые выражают сильное значение. Они составляют богатство и уникальность языка как фразеологические единицы или выражения. В статье рассматриваются семантические структурные типы фразеологических единиц французского языка, их лингвистические особенности, а также различные ситуации, возникающие при их переводе на узбекский язык.

Ключевые слова: фразеологизм, речь, культура, языковой признак, мысль, значение, перевод.

Frazeologizmlar har qanday tilning ajralmas qismi bo'lib, ular nutqning ta'sirchanligini, ifodaliligini va boyligini oshiradi. Til ilmida frazeologizm, frazeologik birlik, frazema, ibora, idioma kabi atamalar o'rganilib kelingan. Frazeologik birliklarni o'rganish va tadqiq etish tilshunos olimlarni qadimdan qiziqitirib kelgan. XIX asrgacha iboralar lug'atshunoslik tarkibida o'rganilib, bunda ularning faqat ma'nolari va etimologiyasi bayon etilgan (Abdurazzakov, 2023, p.343). Frazeologiya tilshunoslikning turg'un iboralarni tahlil qiluvchi bo'limi sifatida uzoq o'tmishga ega. Ammo ko'plab ilmiy hujjatlarga qaramay, leksik mustahkamlash bilan bog'liq savollarning aksariyati juda dolzarb bo'lib, bugungi kunda jonli munozaralar va chuqur tahlillarni keltirib chiqarmoqda. Keyingi paytlarda tilshunoslik va unga aloqador fanlarning yuksalishi frazeologiyaga ham yangicha nuqtai nazardan qarash imkonini beradi (Sul'kowska, 2016, p.36).

Frazeologik birliklar tilning madaniyati, tarixi va xalqning dunyoqarashini aks ettiradi. Ularning lug'at boyligini kengaytirishdagi o'rni quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

1. Lug'at tarkibini boyitish: Frazeologizmlar tildagi so'zlarning qo'llanilish doirasini kengaytiradi. Masalan, "qo'l qovushtirib turmoq" iborasi "hech narsa qilmay turmoq" ma'nosida ishlatiladi. Agar bunday iboralar bo'lmasa, fikr ifodalash yanada sodda va kam imkoniyatli bo'lib qolgan bo'lar edi.

2. Ifodalilik va obrazlilikni oshirish: Frazeologizmlar orqali nutq yanada jonli va ta'sirchan bo'ladi. Masalan, "ko'ngli ochiq" iborasi insonning saxiy va yuksak fazilatli ekanligini obrazli ifodalaydi. Oddiy so'zlar bilan bu ma'noni ifodalash anchagina uzunroq va samarasizroq bo'lishi mumkin.

3. Nutqning rang-barangligini ta'minlash: Frazeologik birliklar nutqqa ta'sirchanlik va xilma-xillik baxsh etadi. Ular gapga hissiy urg'u beradi va undagi ma'no qatlamlarini kengaytiradi. Masalan, "tilida bol tommoq" iborasi "o'ta shirinso'z, iltifotli notiq, muxlis" degan ma'nolarni anglatadi (Davronovna, 2024, p.1418).

4. O'ziga xos milliylikni saqlash: Frazeologizmlar xalqning milliy tafakkuri va madaniyatini aks ettirganligi sababli, ular orqali tilning o'ziga xosligi saqlanadi. Masalan, o'zbek tilida "Nomus o'limdan kuchli", "Kengga keng dunyo, torga tor dunyo"; fransuz tilida esa "Faute avouée est à moitié pardonnée", "A cœur vaillant rien d'impossible" kabi maqollar borki, bular xalqning hayotiy tajribalariga asoslangan frazeologik birliklardir.

5. Fikrni qisqaroq ifoda etish: Frazeologizmlar uzoq tushuntirishni talab qilmaydi, ular orqali fikrni qisqa va lo'nda yetkazish mumkin. Masalan, o'zbek tilida "teskari qarash" iborasi "yoqmaslik, norozilik bilan qarash" ma'nosini fransuz tilida esa "avoir la pêche" iborasi "sog'lom bo'lmoq, o'zini yaxshi his qilmoq" ma'nosini qisqacha ifodalaydi.

Frazeologizmlar tilning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirib, uni jonli va ta'sirchan qiladi. Ular lug'at boyligini oshirish bilan birga, milliy madaniyat va tarixni ham aks ettiradi. Shuning uchun ham frazeologizmlarni o'rganish va ulardan to'g'ri foydalanish nutqning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Frazeologik birliklar obrazlilik va emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi eng muhim vositalardan biridir. Ular badiiy, siyosiy va publitsistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi. Shu boisdan frazeologizmlar tilshunoslikning alohida sohasi hisoblangan uslubshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi (Bekiyeva, 2022, p.652).

Frazeologizmning asosiy xususiyatlari:

- *Semantik yaxlitlik* – frazeologik birikma butun sifatida ma’no ifodalaydi, har bir soʻzning ma’nosi butun birikmaning ma’nosini tushuntirishga xizmat qiladi.

- *Ijodiy qoʻllanilish* – frazeologizmni yangi kontekstlarda ishlatish koʻpincha gapirishda yoki yozishda ijtimoiy, madaniy va shaxsiy nuqtai nazardan turli xil variantlarga ega boʻlishi mumkin.

Turgʻun iboralar koʻpincha ona tilida soʻzlashuvchilar tomonidan eʼtiborga olinmaydi, lekin chet ellik talabalar tomonidan tezda seziladi. Ularning mavhumligi chet tillarini oʻrganish va tarjima qilishda qiyinchilik tugʻdiradi va koʻpincha oʻquvchilarni ularga eʼtibor bermasligiga olib keladi, bu esa ularni oʻrganish maqsad qilingan tilda toʻliq malaka hosil qilishdan uzoqlashtiradi. Har qanday turgʻun konstruksiyalar (idiomatik iboralar, soʻz qoʻshilmalari, paremiyalar va boshqalar) tillarning turgʻun kombinatorikasining bir qismidir va shuning uchun ular koʻp qirrali va xilma-xil yondashishni talab qiladigan elementlardir (Sulowska, 2016, p.36).

Frazeologizmlar va madaniyat oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik mavjud. Frazeologizmlar, asosan, milliy va madaniy xususiyatlarni oʻz ichiga oladi. Filologik oliy taʼlim muassasalarida frazeologizmlarni oʻrganish orqali talabalar tilning madaniy asoslarini, xalq tilining oʻziga xos jihatlarini oʻrganishadi. Yaʼni, frazeologik birikmalar yordamida milliy xarakterni, urf-odatlarini, tarixiy voqealarni anglash osonlashadi. Bu esa talabalarga tilni nafaqat grammatik, balki madaniy nuqtai nazardan ham chuqurroq tushunish imkoniyatini yaratadi. Fransuz tilidagi frazeologik birliklar milliy madaniyat va tilning oʻziga xosligini aks ettiradi. Masalan, *“avoir le cœur sur la main”* (olijanob qalbga ega boʻlmoq) iborasi biror kishining samimiy va saxovatli ekanligini ifodalaydi.

Frazeologizmlar til oʻrganuvchilarda kommunikativ mahoratni shakllantirishda ham muhim oʻrin tutadi. Ularni oʻrganish talabalar uchun tilni nutq jarayonida samarali va toʻgʻri ishlatishni taʼminlaydi. Frazeologizm orqali gapirish, matn yaratish va nutqni boyitish samarali kechadi. Bu metodologiya talabalarni nafaqat tilni grammatik jihatdan toʻgʻri ishlatish, balki tilni faol va ijodiy qoʻllashga oʻrgatadi.

Frazeologik birliklarni toʻgʻri talqin qilish va tarjima qilish uchun ularning lingvistik xususiyatlarini chuqur oʻrganish zarur :



Sxema 1. *Frazeologik birliklarning lingvistik xususiyatlari.*

Fransuz tili boy frazeologik birliklarga ega boʻlib, ular nafaqat tilning estetik goʻzalligini, balki milliy madaniyat va tarixni ham aks ettiradi. Frazeologik birliklar tilshunoslikda oʻziga xos tizimga ega boʻlib, semantik, sintaktik va pragmatik jihatlardan tadqiq qilinadi (Xolova, 2023, p.34).

Frazeologik birliklar oʻzining semantik yaxlitligi bilan ajralib turadigan birikmalardir. Ular quyidagi turlarga ajratiladi:

- *Frazeologik birikmalar (phrasèmes)* – ma’lum bir ma’noga ega bo’lgan, lekin tarkibiy qismlari o’z mustaqil ma’nolarini saqlab qolgan iboralar. Masalan: *prendre la mouche* (tez jahli chiqmoq).

- *Frazeologik butunliklar (locutions et collocations)* – butunlay ko’chma ma’noga ega bo’lib, tarkibiy qismlari alohida ishlatilganda asl ma’nosini yo’qotadigan birliklar. Masalan: *avoir le cafard* (xafa bo’lmoq, tushkunlikka tushmoq).

- *Matal va maqollar (aphorismes et proverbes)* – xalq og’zaki ijodining mahsuli bo’lib, ularning semantik tuzilishi an’anaviy ma’noga ega. Masalan: *Petit à petit, l’oiseau fait son nid* (Asta-sekin qush o’z uyasini quradi – sabr va mehnat bilan muvaffaqiyatga erishish mumkin).

Frazeologik birliklar quyidagi lingvistik xususiyatlarga ega :

1. *Semantik jihatlar*: Frazeologik birliklar semantik jihatdan yaxlitlik va ko’chma ma’noga ega. Ularning tarkibiy qismlari ba’zan individual ma’nolarini saqlab qolsa, ba’zan esa yangi ma’no hosil qiladi. Masalan, *donner sa langue au chat* iborasi "savolga javob topa olmaslik" ma’nosini anglatadi, lekin tarkibiy qismlari alohida olinganda bu ma’no yuzaga chiqmaydi.

2. *Sintaktik jihatlar*: Frazeologik birliklar odatda bir butun sifatida ishlatiladi va ular tarkibiy jihatdan barqaror bo’ladi. Ularning tarkibiy qismlari erkin almashtirilmaydi. Masalan, *être dans de beaux draps* (qiyin ahvolga tushmoq) iborasida *beaux draps* o’rniga boshqa so’z qo’shish frazeologik birlikni buzadi.

3. *Pragmatik jihatlar*: Frazeologik birliklarning ishlatilishi nutq jarayonida muloqotning yanada ifodali bo’lishini ta’minlaydi. Ular nutq uslubi va kontekstga bog’liq holda turlicha qo’llanilishi mumkin. Jumladan, ba’zi frazeologik birliklar rasmiy nutqda kamroq ishlatilsa, norasmiy yoki badiiy uslubda keng qo’llaniladi.

Frazeologik birliklarni boshqa tillarga tarjima qilishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Chunki har bir til o’ziga xos madaniy va tarixiy xususiyatlarga ega. Frazeologik birliklar tarjimada quyidagi usullar bilan ifodalanadi:

- *To’g’ridan-to’g’ri ekvivalent orqali*: Masalan, *marcher sur des œufs* – "tuxum ustida yurmoq" (ehtiyotkor bo’lish kerak).

- *Tafsiriy tarjima orqali*: Masalan, *cordon-bleu, tenir tête, à bon chat, bon rat, ...* kabi iboralar til bo’yicha alohida bilim va ko’nikmalarni talab etadi. Yoki, *mettre les pieds dans le plat* iborasi "noo’rin gapirish" deb tarjima qilinadi.

- *Muqobil milliy ekvivalent orqali*: Masalan, *appeler un chat un chat* iborasi "oyni oy, quyoshni quyosh deyish" tarzida tarjima qilinishi mumkin.

Frazeologizmlar nafaqat nutqni bezash vositasi, balki uning mazmunini boyituvchi, xalq madaniyatini aks ettiruvchi til birliklaridir. Chet tili sifatida fransuz tilini o’rganishda frazeologizmlarni egallash quyidagi sabablarga ko’ra muhimdir:

- Ular tabiiy nutqni shakllantirishga yordam beradi. Har qanday til o’rganuvchi grammatik qoidalarga amal qilishi muhim bo’lsa ham, nutqining tabiiy chiqishi frazeologizmlardan foydalanishiga ham bog’liq.

- Leksik boylikni kengaytiradi. Frazeologik birliklarni o’zlashtirgan o’quvchi o’z fikrlarini aniqroq va ta’sirchan ifodalash imkoniga ega bo’ladi.

- Kontekstual tushunishni rivojlantiradi. Chet tilida frazeologizmlarning ma’nosi odatda so’zma-so’z tarjima qilinmaydi. Ularni o’zlashtirish orqali talabalar semantik tafakkurini rivojlantiradi.

- Madaniy tafakkurni oshiradi. Frazeologik birliklar milliy o’ziga xoslikni aks ettirgani uchun til o’rganuvchi o’sha xalqning madaniyati va mentalitetini ham tushunib boradi.

Fransuz tilida frazeologik birliklar tilshunoslikning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo’lib, ularning lingvistik xususiyatlari semantik, sintaktik va pragmatik jihatdan o’rganiladi. Ushbu birliklar tildagi ifodalilikni oshiradi va tarjima jarayonida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Frazeologik birliklar turli darajalarda birikkan va turli darajadagi semantik shaffoflik darajasi bilan tavsiflangan har xil turdagi polileksik tuzilmalarni o’z ichiga oladi. Natijada, bu turkumga til egalari

bo'lganlar uchun yetarlicha oson bo'lgan so'z qurilmalari kiradi. Ushbu konstruksiyalar ular uchun juda noqulay bo'lishi tabiiy, chunki ularning tasvir-ma'no munosabatlari u qadar aniq emasdir. Garchi ajnabiy inson ibora tarkibidagi barcha leksik elementlarning ma'nosini bilsada, idiomatik gap ko'pincha xorijlik suhbatdosh uchun mutlaqo notanish jumla bo'lib ko'rinishi mumkin, chunki u ba'zan uning ma'nosini tushunmaslik holatlari ham uchrab turadi. Modomiki, frazeologik birliklarning ko'p ishlatilishi har bir til tizimi uchun ancha muhim ekan, o'quvchining og'zaki va yozma nutqda yaxshi kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'lishi uchun ajralmas va turg'un birikmalarni bilishi mutlaqo zarur ekanligiga shubha yo'q.

Adabiyorlar ro'yxati:

1. Sułkowska, M. (2016). Phraséodidactique et phraséotraduction: quelques remarques sur les nouvelles disciplines de la phraséologie appliquée. *Yearbook of Phraseology*, 7(1), 35-54. <https://doi.org/10.1515/phras-2016-0003>
2. Abdurazzakov Yusufjon Usmaïlovich, & Abdurazzakov D. (2023). FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI TIL VA MULOQOTDAGI O'RNI. B International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) (T. 6, Выпуск 06, сс. 340–343). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10069568>
3. Bekiyeva, Malika Jamoldin Qizi (2022). FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR OBRAZILIK VA EMOTSIONAL-EKSPRESSIVLIKNI YUZAGA KELTIRUVCHI ENG MUHIM VOSITA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (1), 650-655.
4. Xolova, S. (2023). AVOIR. FE'LI ISHTIROKIDAGI INSON HIS-TUYG'ULARINI IFODA ETUVCHI FRAZEMALAR TARJIMASINING O'ZIGA XOSLIKLARI. *ЦЕНТРА НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz)*, 33, 33.
5. Davronovna, K. S. (2024). The Polysemy of Phrasemes Expressing Emotions in French and Uzbek Languages. *Miasto Przyszłości*, 48, 1417-1420.
6. Xolova, S. (2023). Frazeologik birlik-frazema-frazeologizm: tasnif va tadqiqot tahlili. *ЦЕНТРА НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz)*, 27, 27.
7. Davronovna, K. S. (2023). QUELQUES REMARQUES SUR LES PHRASÈMES ÉMOTIFS NEUTRES EN LANGUES FRANÇAISE ET OUZBÈKE. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 741-744.
8. Davronovna, K. S. (2022). SOME FEATURES OF CERTAIN PHRASEOLOGICAL UNITS TRANSLATION USED IN FRENCH LITERATURE OF THE NINETEENTH CENTURY. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 9, 70-74.

<i>Sayfutdinova D.</i> O‘zbek tilida “tilak” nutqiy janrining lisoniy xususiyatlari	181
<i>Khodjayeva Sh.</i> The Realism Literature in the West and the East: A Contrastive Critical Thesis on Classification with a Focus on Uzbek Realism.....	187
<i>Убоженко А.</i> Проблема классификации словосочетаний по объёму и структуре в русском и узбекском языках	192
<i>Umarov B.</i> Rumer Godenning “Gulbadanbegim” asaridagi Bobur obrazi.....	197
<i>Khayrullayeva Sh.</i> Linguistic and Cultural Analysis of Positive and Negative Emotions in Uzbek and English	202
<i>Khidirova M.</i> Homonyms in animal names in the English language.....	207
<i>Xolmurodova G.</i> “Uyat” leksik-semantik maydonining asosiy leksik birliklari qiyosiy tahlili: etimologik va semantik asoslar	214
<i>Xolova Sh.</i> Fransuz tilida frazeologik birliklar va ularning lingvistik xususiyatlari.....	219
<i>Zokirova B.</i> Precision and impact: Laconism as a literary device	224
<i>Худайбергенова Н.</i> Архетипы в русскоязычной литературе Центральной Азии: потенциал для образовательной практики	230
<i>Umarova Obidaxon</i> Fransuz tili orqali madaniyatlararo kommunikatsiyani shakllantirish	237
<i>Kholibekova O.</i> Concept of anger in Uzbek literary context	242
<i>Худайбергенова Н.</i> Понимание женских архетипов: критика модели Кэмпбэлла через призму Марии Татар	249
<i>Makhramkulova Kh., Ergasheva G.</i> Language planning and policy	255
<i>Карбаева Б.</i> Кросс-лингвистические различия в выражении слухового восприятия	268
<i>Usmanaliyev Kh.</i> Factors influencing the development of intercultural communication skills in future philologists	272
<i>Sabirova Sh.</i> Madaniyatlararo muloqotda tushunmovchilik muammolari va ularning sabablari	277
<i>Zakirova N.</i> Divine Justice, Free Will, and Moral Consequences in Alisher Navoi's <i>Khamasa</i> and John Milton's <i>Paradise Lost</i>	282
<i>Suleymanova N., Zakhidova G.</i> Syntactic structures and speech formation in English and Uzbek languages.....	291
<i>Alibekova D.</i> Teodor Drayzer va Gektor Malo asarlaridagi stilistik qurilmalarning tarjima asarlardagi tahlili	297
<i>Begibayeva F.</i> Turli tizimli tillarda “hamdardlik bildirish” nutqiy janrining sotsiomadaniy xususiyatlari	302
<i>Tilovatxon X.</i> Nemis tilidagi flora komponentli frazeologizmlarning xususiyatlari.....	307
<i>Alibekova D., Mardiyeva D.</i> Boshlang‘ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy usullari tahlili	313
<i>Usmonova D.</i> The importance of idiomatic competence for future FL teachers.....	319
<i>Usmanova N.</i> Chet tillarni o‘qitishda o‘yin va interfaol usullardan foydalanish.....	325
<i>Зияева С.</i> Межкультурная интерференция в речевом поведении узбекских студентов при изучении немецкого языка	330
<i>Toshtanova M., Abduraxim N.</i> Benefits of interactive technologies on the improvement of beginner learners’ reading skills	348
<i>Maxkamova G., Safarova M.</i> Issues and principles of preparation of lecture materials for Blended learning format.....	355
<i>Damirova G.</i> Developing an online video library for English language learners.....	361
<i>Khujaniyazova G., Khujaniyazov M.</i> The role of digital resources in English teaching in Uzbekistan’s educational system	366
<i>Jurayeva Sh.</i> Chet tillarni o‘qitish vositalari va ulardan samarali foydalanish.....	371
<i>Досбекова Г.</i> Требования к уголку природы в детском саду	376